

Qo‘qon shahri tarixiy mikrotoponimiyasining tarkibi

Dilhayot Sotiboldiyev

Qo‘qon DPI o‘zbek tili va adabiyoti

fakulteti 2- bosqich talabasi

dilhayotsotiboldiyev5@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qo‘qon shahri tarixiy mikrotoponimiyasi turlari, xususiyatlari, toponimikadagi o‘rni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: toponimika, tarix, tilshunoslik, geografiya, oykonimlar.

Toponimika joy nomlari haqidagi fan bo‘lib, u geografik joy nomlarining kelib chiqishi, mazmuni, rivojlanish qoidasi va to‘g‘ri yozilishini o‘rganadi. Toponimika bilan geografiya, tarix, tilshunoslik, etnografiya kabi bir qator fanlar shug‘ullanadi. Joy nomlari tarixan kelib chiqqan va rivojlangan. Ularning shakllanishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq, bo‘lgan, shuning uchun ko‘p nomlarning o‘zagi o‘tmishga borib taqaladi.

Biz o‘rganayotgan Qo‘qon shahri tarixiy mikrotoponimiyasi tizimi ham ijtimoiy voqyealar girdobida, tillarning aralashishi natijasida shakllangan. Shu bilan birga, «Qo‘qon vodiyning g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, savdo karvonlarining yo‘li qadim zamonda vox va orqali o‘tgan» ligi ham uning toponimiyasi tarkibiga katta ta’sir etganligi shubhasizdir.

Qo‘qon shahri tarixiy mikrotoponimlarining tarkibi xilma-xildir. Ular nom anglatgan ob’yektga ko‘ra quyidagi guruhlarga tasnif qilinadi: 1.Oykonimlar. Oykonimlarga aholi yashash maskanlari nomlari kiradi. Bular o‘z navbatida tubandagi turlarga ajraladi: 1) daha nomlari: Sarimozor dahasi, Xujand dahasi, Marg‘ilon dahasi, Qatag‘on dahasi: 2) mahallalar nomi: Baxmalbof, Degrezlik, Davronbek, Egarchilik, Taroqchilik, Bog‘bonon, Sarbonon, Bakovul, Govjallob; 3) guzarlar nomi: Toshkentliguzar, Qaymoqliguzar, Novvoylikguzar,

Isfaraguzar; 4) ko‘chalar nomi; O‘rtako‘cha, Raisko‘cha, Pastko‘cha va boshqalar.

O‘rganilayotgan hududdagi oykonimlar quyidagi nomlar bilan atalgan: 1) etnonimlar bilan: Qipchoqariq, Qashqaryon, Beshqovoq, Qirqlar, Yuzlar, Qorako‘rpa, Urganji, G‘oziyog‘lik; 2) shaxs ismlari bilan: Raisqulibek, Islom Mirzo, Mirtoxir, Ibn Yamin, Xaydarbek, Bobobek, Boybo‘ta, Fayzixo‘ja, Rustambek; 3) shaxs ismlari va mansab nomlari bilan: Sayd qushbegi, Norqo‘zi dodho, Matkarim qorovulbegi, Masharif otaliq, Azimboy qushbegi, Karimqul zinbardor; 4) mansab nomlari bilan: Bakovul, Otaliq, Qozi quzot, Qozikalon; 5) kasb-hunar nomlari bilan: Po‘stindo‘z, Xosabof, Pillakash, Chitgaron, Solkashon, Panjarasoz, Paxtakash, Belbog‘chi va boshqalar. 2. Gidronimlar. Bular soy, ariq, ko‘l, buloq, nomlarini o‘zida mujassamlashtiradi: Ulkansoy, Kichiksoy, G‘alchasoy, Oqsuv, Qorasuv, Qo‘sariq, Achchiqko‘l, Zarbuloq, Oqbuloq, To‘qqizbuloq, Oydinko‘l singarilar.

3. Ko‘priklar nomi: Boytako‘prik, G‘ishtko‘prik, Noyib ko‘prigi, Charxinning ko‘prigi va boshqalar.

4. Madrasalar, masjidlar, xonaqoxlar nomlari: Norbo‘tabiy madrasasi, Madrasai Hokim oyim, Madrasai Tunqator, Madrasai Xaqqul mingboshi, Madrasai Chalpak, Madrasai Ming oyim, Dasturxonchi madrasasi, Madrasai Kamol qozi, Buzrukxuja madrasasi, Madalixon madrasasi, Madrasai Xoja dodxoh, Madrasai Mohlaroyim, Madrasai Oxund devon, Madrasai Aminxon, Madrasai Oftob oyim, Madrasai Miyon Hazrat, Madrasai Hakimtura, Madrasai Sulton Murodbek, Masjidi Jome’, G‘ishtlikmachit, Tepa Xonaqo kabilar. Madrasalar, asosan, uni qurdirgan, qurilishiga mablag‘ sarflagan shaxslar nomlari bilan atalgan. Ayrim madrasalar ikki nom bilan yuritilgan: Norbo‘tabiy madrasasi - Madrasai Mir; Madalixon madrasasi-Madrasai Xon singarilar.

5. Mozorlar, qabristonlar, dahmalar nomlari: Sarimozor, Katta qabriston, G‘arib go‘riston, Shoxlikmozor, Ko‘kto‘nlik ota, Shayxon qabristoni, Dahmai Shohon, Dahmayi Modarixon kabilar.

6. Darvozalar nomlari.

O‘tmishda Qo‘qon shahriga kirish uchun 12 darvoza bo‘lgan. Bular: G‘oziyog‘liq darvozasi, Qatag‘on darvozasi, Mo‘ymuborak darvozasi, Xo‘jand darvozasi, Isfara darvozasi, Marg‘ilon darvozasi, Namangan darvozasi, Tog‘liq darvozasi, Rishton darvozasi, Sarimozor darvozasi, Quduqlik darvozasi, Chust darvozasi nomlari bilan atalgan. Darvoza nomlari o‘zgarib turgan. Ayrim darvozalar ikki va xatto uch nom bilan ham yuritilgan. Masalan, Namangan darvozasi - Navbahor darvozasi: Isfara darvozasi - Avg‘onbog‘ darvozasi; Rishton darvozasi - Chimyon darvozasi, Tog‘liq darvozasi - To‘qaytepa darvozasi; Marg‘ilon darvozasi - Oltiariq darvozasi - Yoyilma darvozasi; Chust darvozasi - Ganjiravon darvozasi -Urganji darvozasi kabi.

Darvozalar darvozadan boshlanadigan yo‘l qayerga olib borsa, o‘sha manzil nomi bilan atalgan. Chust darvozasi, Isfara darvozasi, Xo‘jand darvozasi, Rishton darvozasi nomlari shu yo‘sinda vujudga kelgan. Ba’zi darvozalar darvoza o‘rnashgan joyning (mahalla yoki qishloqning) nomiga nisbat berilgani holda nomlangan: Mo‘ymuborak darvozasi, Tog‘liq darvozasi, Qatag‘on darvozasi, Quduqlik darvozasi, G‘oziyog‘liq darvozasi kabi.

7. Bozorlar nomi: Yog‘bozori, Xodabozori, Ko‘mir bozori, Tuzbozor, Otbozor, Jo‘xori kaffon, Molbozor, Duppiqator bozori, To‘nqator bozori.

Bozorlar ma’lum bir mahsulotni sotishga ixtisoslashtirilgan bo‘lib, ular shu mahsulotning, tovarning nomi bilan yuritilgan. Qayd etilgan bozorlar nomlari bunga yaqqol misoldir.

8. Bog‘lar nomi: Teraklibog‘, Jiydalibog‘, Bog‘i Rahmat, Bog‘ibaland, Bog‘i Behisht, Bog‘inav, Bog‘imaydon, Bog‘ibo‘ston, Dilkusho, Chorchaman, Janjalbog‘, Qorangibog‘, Mirgulshanboy bog‘i, Urganjibog‘,

Avg‘onbog‘ kabilar. Bu bog‘larning ayrimlari vaqtlar o‘tishi bilan mahalla nomlarini ham ifoda eta boshlagan.

9. Saroylar, o‘rdalar, ko‘shklar nomlari: 3arrinsaroy, Jahonoro, Eski O‘rda, Xudoyorxon O‘rdasi, Ko‘shki anvor singarilar.

Shunday qilib, Qo‘qon shahri tarixiy mikrotoponimlari qanday ob’yektning ifodalashiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘lib o‘rganiladi. Ularning anglatgan ma’nosi. nomlanish xususiyatlari, yasalishi, tuzilishi o‘ziga xos belgilarga egadir.

Tadqiqot jarayonida shunga amin bo‘ldikki, hududiy jihatdan kichik bo‘lgan Qo‘qon shahrining mikrotoponimlari ham izlanuvchidan angchagina mehnat talab etishi muqarrardir. Zero, V.A. Nikonor ta’biricha: «Ishni alohida bir viloyat yoki tuman toponimiyasining o‘rganishdan boshlash oson deb o‘ylash noto‘g‘ridir. Mana shu xom xayol ko‘pgina nomshunoslarni ishdan chiqardi, chunki, u materialni erkin tanlashga qo‘ymaydi, barcha mualliflarni hamma faktlarni to‘liq to‘plashga majbur qiladi».

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammad Yahyoxon Dadaboyev. Xo‘qandi latif mahallalari va ko‘chalarining nomlanish tarixi. – “Farg‘ona” nashriyoti, 2004.
2. N.Oxunov. Joy namlari ta’biri. - T.: O‘zbekiston, 1994.